

PEDAGOGICAL ASPECTS OF TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCIES IN FUTURE OLIGOPHRENOPEDEAGOGUES BASED ON GAMIFICATION

Jizzakh State Pedagogical University
Department of Special Pedagogy
Trainee teacher **Bozorboyev Javlon**

GAMIFIKATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK OLIGOFRENOPEDEAGOGLARDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK JIXATLARI

Jizzax Davlat Pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası

stajiyor o'qituvchisi **Bozorboyev Javlon**

javlonbozorboyev8@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada, bo'lajak oligofrenopedagoglarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda gamifikatsiya texnologiyalarining pedagogik jihatlari o'rganiladi. Gamifikatsiya pedagogik jarayonlarda o'qitishning innovatsion yondoshuvi sifatida taqdim etiladi, uning orqali o'quvchilarning faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirish, o'rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish imkoniyatlari ko'rsatiladi. Maqolada, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda gamifikatsiyaning o'zni, uning oliy ta'limdagi o'quv jarayoniga ta'siri va pedagogik texnologiyalar sifatida qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bo'lajak oligofrenopedagoglarga yo'naltirilgan o'quv jarayonida gamifikatsiya metodlarini qo'llash usullari, ularning samaradorligi va o'qitishdagi innovatsion yechimlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Gamifikatsiya, oligofrenopedagogika, kasbiy kompetensiyalar, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim, o'quv jarayoni, pedagogik metodlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические аспекты геймификационных технологий в развитии профессиональных компетенций будущих олигофренопедагогов. Геймификация представлена как инновационный подход к обучению в педагогических процессах, демонстрирующий возможности повышения интереса студентов к деятельности, повышения интерактивности и интересности учебного процесса. В статье рассматривается роль геймификации в формировании профессиональных компетенций, ее влияние на образовательный процесс в высшем образовании и ее использование в качестве педагогической технологии. Также анализируются методы использования геймификационных технологий в образовательном процессе, ориентированном на будущих олигофренопедагогов, их эффективность и инновационные решения в обучении.

Ключевые слова: Геймификация, олигофренопедагогика, профессиональные компетенции, педагогические технологии, инновационное образование, образовательный процесс, педагогические методы.

Abstract: This article studies the pedagogical aspects of gamification technologies in the development of professional competencies in future oligophrenopedagogues. Gamification is presented as an innovative approach to teaching in pedagogical processes, through which the possibilities of increasing students' interest in the activity, making the learning process



interactive and interesting are shown. The article considers the role of gamification in the formation of professional competencies, its impact on the educational process in higher education and its use as pedagogical technologies. Also, the methods of using gamification methods in the educational process aimed at future oligophrenopedagogues, their effectiveness and innovative solutions in teaching are analyzed.

Keywords: Gamification, oligophrenopedagogy, professional competencies, pedagogical technologies, innovative education, educational process, pedagogical methods.

Maxsus pedagogda oligofrenopedagogning kasbiy kompetentligini gamifikatsiya asosida kasbiy-kompetentlikning muhim tarkibiy komponenti sifatida ko'rib chiqish lozim deb hisoblaymiz. Gamifikatsiya kompetentligi soha kompetentligining ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro ta'siri orqali affektiv sohaga o'ziga xos o'zgartirish vazifasini bajaradi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida maxsus pedagog asoschilari imkoniyati cheklangan bolalarning psixologik xususiyatlarini ularning rivojlanish qonuniyatlari, tamoyillari va yo'nalishlari asosida o'rganar ekanlar, ta'lim jarayonining o'ziga xosligi va zarurligi bilan bir qatorda, gamifikatsiya elementlariga asoslangan faoliyatning muhimligini ham alohida ta'kidlaydilar. Ular maxsus ta'lim jarayonida gamifikatsiyani qo'llay oladigan, bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga oluvchi va barqaror kasbiy sifatlarga ega bo'lgan maxsus pedagogning ahamiyatini ko'rsatib o'tadilar.

O'z tadqiqotlarida olimlar "maxsus pedagogga bolaga bo'lgan muhabbat, e'tibor, sabr-toqat hamda pedagogik optimizm zarur bo'lishi, o'yin faoliyati orqali ta'limiy vazifalarni hal eta olish qobiliyati, insonshunoslik fanlariga xos bo'lgan chuqur, har tomonlama va tizimli bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, gamifikatsiya jarayonida tez va to'g'ri qaror qabul qila olishi muhim" ekanligini ta'kidlaydilar [41], [42], [44], [46], [54], [58], [62], [73], [77].

Maxsus pedagoglarni tayyorlashga bag'ishlangan tadqiqotlarni o'rganish jarayonida ko'plab olimlar bo'lajak maxsus pedagoglar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar qatorida gamifikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini ham muhim deb hisoblashlarini ko'rish mumkin.

Maxsus pedagogikaning turli sohalari bo'yicha mutaxassis tayyorlashga doir olib borilgan tadqiqotlar gamifikatsiya elementlarini ta'lim jarayoniga moslashtirish imkoniyatlarini ham ochib bergan. Jumladan, oligofrenopedagogiya sohasida L.R. Mo'minova, M.Y. Ayupova, Y.YE. Chicherina, D.A. Nurkeldiyeva, YE. Bondareva, L.R. Haitov, M. Mahmudova, T.B. Filicheva, O.P. Pravdina, L.S. Volkova, S.N. Shaxovskaya, YE.N. Jukatinskaya, N.K. Xarchenko, O.V. Saprionova, A.A. Almazova, E.A. Zayseva va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'yin asosidagi mashg'ulotlarning rivojlantiruvchi ahamiyati yoritilgan.

Oligofrenopedagogika yo'nalishida V.V. Voronkova, G.G. Korneva, A.I. Meremyanina, T.A. Guzikova, L.A. Gladun, V.V. Bepalova, V.A. Borodina, R.G. Aslayeva, G.M. Dulnev, X.S. Zamskiy va boshqalar gamifikatsiyaning bilish faoliyatini faollashtirishdagi rolini asoslab berganlar.

Tiflopedagogika sohasida I.B. Kovalenko, A.S. Ganji, A.G. Litvak, M.I. Zemtsova, N.G. Krachkovskaya, B.V. Sermeyev, A.I. Kaplan, V.A. Feoktistova va boshqalarning ishlarida ko'rgazmali va o'yin texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan.

Surdopedagogika yo'nalishida esa V.I. Beltyukov, F.F. Rau, R.M. Boskis, T.A. Vlasova, G.A. Zayseva, N.M. Nazarova, YE.V. Ryazanova, L.S. Dimskis, O.V. Makarova, S.A. Kuzminova, G.SH. Tufatulin, V.V. Oleshova, V.P. Timoxin, A.S. Shafranova, D.B. Yakubjanova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda gamifikatsiya elementlarining kommunikativ va motivatsion ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Maxsus pedagoglarning shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini, jumladan gamifikatsiya asosidagi faoliyatini tadqiq qilishga bo'lgan urinishlar XX asrning ikkinchi choragidan boshlab kuzatila boshlagan. P.F. Kapterev, V.P. Kashenko XIX asr yakuniga kelib o'qituvchi shaxsining



“umumiy” psixologik sifatlariga tayangan holda maxsus pedagog shaxsining dinamik, suggestiv va gumanistik shakllarini talqin qilishga muvaffaq bo‘lganlar.

Ushbu olimlarning uzoq muddatli ilmiy izlanishlari asosida maxsus pedagog kadrlar uchun muhim bo‘lgan tayanch kasbiy xususiyatlar aniqlab berilgan bo‘lib, ular zamonaviy sharoitda gamifikatsiyani qo‘llash jarayonida ham o‘z dolzarbligini saqlab qoladi. Jumladan, “o‘z-o‘zini rivojlantirish, metin iroda, toqat, ta‘lim natijalarining past ko‘rsatkichlari sharoitida ham motivatsiyani saqlay olish, bosqichlik, har bir o‘quvchiga individual yondasha olish, o‘yin asosidagi faoliyat orqali jamoaviy muhitni shakllantirish, tarbiyalanuvchilarga mehr-muhabbat va o‘z ishiga nisbatan mas‘uliyatli yondashuv, kasbiga nisbatan qimmatli munosabatda bo‘lish” kabi sifatlar alohida ta‘kidlangan [73].

Hozirgi pedagogik-psixologik adabiyotlarda maxsus pedagogning umumiy kasbiy-shaxsiy sifatleri va ularning gamifikatsiya jarayonidagi namoyon bo‘lishi D.B. Yakubjanova [170], N.A. Strogova [145], L.A. Yastrebova [172], V.A. Genkina [48], L.A. Lisurenko [95], V.A. Dianova [56], I.A. Filatova [154], N.M. Nazarova [110], L.F. Serbina [132], T.I. Yandonova [171] va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

Ularning ta‘kidlashicha, alohida ta‘lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlovchi maxsus pedagog, jumladan oligofernopedagog, o‘yin texnologiyalaridan foydalangan holda avvalo har bir bolani, uning mavjud cheklovlaridan qat‘i nazar, shaxs sifatida qabul qilishi lozim. Bunga esa faqat alohida shaxsiy sifatlar, umuminsoniy qadriyatlar, keng dunyoqarash hamda insonparvarlik va motivatsiyaga yo‘naltirilgan yondashuv orqali erishish mumkin.

O‘rganilgan adabiyotlar tahlili bo‘lajak oligofernopedagoglarda gamifikatsiya asosida quyidagi muhim kasbiy-shaxsiy fazilatlarni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi:

- har bir bola, u alohida ta‘lim ehtiyojiga ega bo‘ladimi yoki me‘yorida rivojlangan bo‘ladimi, qadrlanishi, himoya qilinishi va tarbiyalanishi kerakligiga bo‘lgan ishonch;
- bolalarning huquqlari, imkoniyatlari va ta‘limdagi tengligi;
- o‘yin asosidagi faoliyat orqali insonparvarlik yondashuvini amalga oshirish, samarali muloqot o‘rnatish, optimizm va faol hayotiy pozitsiyani namoyon etish;
- ta‘lim jarayonida bolani shaxs sifatida idrok etish va qo‘llab-quvvatlash.

Ko‘pgina mualliflar maxsus pedagogning shaxsiy sifatleri bilan bir qatorda, uning gamifikatsiya bilan bog‘liq faoliyati va kasbiy faoliyat mazmunining o‘ziga xosligini e‘tirof etadilar [23], [47], [52], [81], [109], [141], [144], [145]. Ular maxsus pedagog faoliyatining cheksizligi va serqirraliligini ta‘kidlab, unda psixologik, pedagogik va amaliy jihatlar o‘zaro uyg‘unlashganini ko‘rsatadilar. Ushbu faoliyat quyidagi turlarda namoyon bo‘ladi: tashxis qo‘yish, didaktik, prognostik, transformatsion (o‘yin orqali rivojlanish holatidan yangi bosqichga o‘tish), tarbiyaviy, tashkiliy, ijtimoiy, konsultativ, konstruktiv (amaliy), loyihalovchi, gnostik, kommunikativ hamda gamifikatsiya asosidagi motivatsion faoliyat va boshqalar.

Oligofernopedagog ishining murakkabligi va ko‘p yondashuvliligi (tibbiy, pedagogik, psixologik) zamonaviy sharoitda gamifikatsiya elementlari bilan boyitilgan ta‘lim jarayonida mutaxassisning lavozim majburiyatlarini yanada kengaytiradi hamda uning kasbiy malaka talablariga quyidagicha o‘ziga xos tus beradi:

- alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni saralash va tashxislash jarayonida o‘yin elementlaridan foydalanish, olib boriladigan korreksion-gamifikatsion ishlarni rejalashtirish va tashkil etish;
- alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning hayotga va jamiyatga moslashishiga o‘yin asosidagi mashg‘ulotlar orqali ko‘maklashish;
- ota-onalar (vasiylar) hamda ta‘lim jarayoni ishtirokchilari bilan gamifikatsiya asosida maslahat va hamkorlik ishlarini tashkil etish;
- alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga nisbatan insonparvar munosabatni saqlagan holda, maxsus pedagogik va gamifikatsion bilimlarni targ‘ib qilish va amaliyotga joriy etish hamda boshqalar.



Kasbiy faoliyat doirasining kengligi maxsus pedagog ishining yana bir muhim tomonini ko'rsatadi: o'qituvchi ta'lim beradigan bolalarda buzilish mexanizmlarining xilma-xilligi gamifikatsiya jarayonida ham qat'iy qolip asosida faoliyat yuritish imkonini bermaydi. Bu holat har bir bolaning rivojlanishidagi o'ziga xoslik, o'yin faoliyatiga bo'lgan individual ehtiyojlar va har bir bolaga individual yondashish zarurligi bilan bevosita bog'liqdir.

Kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida, xususan gamifikatsiya asosidagi ta'limni tashkil etishda, o'qituvchilar I.F. Isaev, V.A. Slastenin va E.N. Shiyanov [157] fikriga ko'ra, haqiqat mantiqiga muvofiq quyidagi pedagogik vazifalar guruhini hal qilish zaruratiga duch keladilar:

- tahliliy va refleksiv (gamifikatsiyalashgan pedagogik jarayonni, uning tarkibiy qismlarini, yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni tahlil qilish, o'qituvchining o'z subyektivligini anglash, o'z faoliyatini baholash, o'yin texnologiyalaridan foydalanishdagi tajribani qayta ko'rib chiqish);
- konstruktiv-prognostik (o'yin elementlariga asoslangan yaxlit pedagogik jarayonni yaratish, rejalashtirish, qabul qilingan qarorlarning natijalari va oqibatlarini prognoz qilish);
- tashkiliy va faoliyatga asoslangan (ta'lim jarayonining turli gamifikatsion variantlarini amalga oshirish, turli pedagogik va o'yin faoliyati turlarini birlashtirish);
- baholovchi va axborot (gamifikatsiyalashgan pedagogik tizim holati va rivojlanish istiqbollari haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va baholash);
- tuzatuvchi va tartibga soluvchi (o'yin asosidagi pedagogik jarayon yo'nalishini sozlash, zarur aloqa va rag'batlantiruvchi bog'lanishlarni o'rnatish, ularni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash).

Keltirilgan yondashuv va kontekstual o'rganish kontseptsiyasi maxsus pedagogning, jumladan gamifikatsiya asosida faoliyat yurituvchi pedagogning kelajakdagi kasbiy faoliyati xususiyatlarini eng to'g'ri aks ettiradi.

Kontekstual o'rganish kontseptsiyasiga ko'ra, A.A. Verbitskiy [22; 23] tomonidan ilgari surilganidek, mutaxassisning kasbiy rivojlanish jarayoni talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan kasbiy faoliyatning predmetga oid va ijtimoiy mazmunini ta'limning barcha shakl, usul va vositalari, jumladan o'yin va interaktiv texnologiyalar yordamida ketma-ket modellashirishdan iborat. Ushbu jarayon uch turdagi o'zaro bog'liq modellar orqali amalga oshiriladi va ular birgalikda talabalarning ta'lim faoliyatidan gamifikatsiyaga asoslangan kasbiy faoliyatga o'tish dinamik modelini tashkil etadi.

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim gamifikatsiya jarayonida har bir talabaga o'z moyilliklari va qiziqishlari, imkoniyatlari va qobiliyatlari, qadriyat yo'nalishlari hamda sub'ektiv tajribasiga tayangan holda o'quv va ta'limiy faoliyatda o'zini namoyon etish imkonini beradi.

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim — bu universal insoniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlarining rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonidir. Shaxsiy yondashuv psixologiya fanining asosiy tamoyili bo'lib, u ta'lim jarayonida bolaning betakrorligini hisobga olishni taqozo etadi. Aynan shu yondashuv gamifikatsiya sharoitida bolaning ta'lim jarayonidagi o'rnini faol sub'ekt sifatida belgilaydi va natijada sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining shakllanishiga olib keladi.

Shaxsiy yondashuvning nazariy asoslari taniqli rus psixologi S.L. Rubinshteyn tomonidan ishlab chiqilgan. K.K. Platonov esa shaxsiy yondashuvni shaxsga individual yondashuv sifatida talqin qilib, uni barcha ruhiy jarayonlarni belgilovchi tizim deb hisoblagan.

- V.P. Bepal'ko pedagogikada shaxsiy yondashuvning yetakchi ahamiyatini ta'kidlab, ushbu yondashuv, ayniqsa, o'yin asosidagi ta'limni tashkil etishda samarali natijalarga erishish imkonini ko'rsatib o'tadi.

- Ko'plab ilmiy ishlar oligofrenopedagogika yo'nalishi bo'yicha talabalarni tayyorlash muammolariga bag'ishlangan (P.O. Agavelian, I.V. Galanova, A.V. Genkina, L.V. Larionova, L.F. Serbina, S.M. Sokolova, N.A. Strogova va boshqalar). Ushbu tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular maxsus pedagogika sohasida ta'lim olayotgan, jumladan gamifikatsiya



elementlarini qo'llashga tayyorlanayotgan oligofrenopedagog talabalarni tuzatish-ta'limiy faoliyatga tayyorlashga yo'naltirilgan.

- Oligofrenopedagogika yo'nalishi talabalarini tayyorlashda oliy kasbiy ta'limning tashkiliy shakllarini rivojlantirish masalalari P.O. Agavelyan, S.D. Zabramnaya, X.S. Zamskiy, V.A. Lapshin, N.M. Nazarova, M.N. Perova, B.P. Puzanov, S.N. Shaxovskaya, E.D. Xudenko, I.M. Yakovleva va boshqalarning ishlarida yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda o'yin texnologiyalari va faol metodlardan foydalanishning pedagogik ahamiyati ham asoslab berilgan.

- Oligofrenopedagog faoliyati murakkab sharoitlarda amalga oshiriladi: ular umumiy pedagogik muammolarni hal qilish bilan bir qatorda, bolaning cheklangan imkoniyatlarini ham hisobga olishlari lozim. Aqli zaif o'quvchilarda muloqot, xulq-atvor yoki boshqa ko'nikmalarning yetarlicha rivojlanmaganligi maxsus pedagogdan o'yin asosidagi maxsus usullarni topishni, an'anaviy va gamifikatsiyalashgan ta'lim metodlarini mahorat bilan uyg'unlashtirishni, shuningdek buzilgan funksiyalar sharoitida yoki ikkilamchi rivojlanish buzilishlarining oldini olishda o'quv materiallarini moslashtirishni talab etadi. Ta'lim jarayoni bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, pedagog va bola o'rtasidagi doimiy hamkorlik va o'zaro ta'sir asosida olib boriladi.

Oligofrenopedagog tomonidan amalga oshiriladigan korreksion-pedagogik ish intellektual nuqsoni bo'lgan bolalar va ularning ota-onalariga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, bunda o'yin asosidagi faoliyat bolaning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish, ularning uyg'un rivojlanishini ta'minlash va buzilishlarni samarali tuzatish uchun qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi. Oligofrenopedagog faoliyati bolaning ijtimoiylashuvini ta'minlash, mustaqilligini oshirish va unda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shu sababli tuzatish-ta'limiy jarayon va maxsus sharoitlarni tashkil etishda gamifikatsiya maxsus pedagog faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Ko'plab pedagoglar fikricha, ijtimoiylik, o'z-o'zini tahlil qilish va empatiya o'qituvchining eng muhim shaxsiy fazilatlari hisoblanadi. Gamifikatsiya jarayonida ushbu fazilatlar o'quvchilar bilan samarali aloqa o'rnatish, ularning psixologik holatini tushunish va qabul qilish, sinfdagi o'zaro munosabatlarni boshqarish, pedagogik vazifalarga mos ravishda faoliyatni qayta tashkil etish, o'yin orqali rag'batlantirish va o'z hissiy holatini boshqarish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ushbu fazilatlar maxsus pedagogning shaxsiy resursi bo'lib, ularning yetarlicha rivojlanmaganligi pedagogik faoliyat samaradorligining pasayishiga va shaxsiy kasbiy kamolotga to'sqinlik qilishi mumkin.

Pedagogik jarayon ongli mustaqil o'qish-bilish faoliyatini gamifikatsiya elementlari orqali rag'batlantirib turishi kerak, o'quvchilarni boshqa o'quvchilar bilan va o'qituvchi bilan birga interaktiv va o'yin asosidagi hamkorlikda ishlashni quvvatlab turishi lozim.

Ikkinchidan, pedagogik jarayon o'quvchini doimiy rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo'lishi lozim. Pedagogik jarayonning mohiyati – erkin gamifikatsiyalashgan muhit yaratish, o'quvchilarga ijobiy hissiy quvvat berish, ularni salbiy tuyg'ulardan xalos etish. Agar darsda o'quv jarayoni ishtirokchilari orasida ma'naviy va o'yin orqali umumiylik hukm sursa, o'quvchi hayot quvonchini his etadi. Zarur sharoit va rivojlanish manbai – o'quvchi imkoniyatlari doirasidan chiqmaydigan qiyinchiliklardir, chunki kuchi yetadigan qiyinchilik qoniqish hissini tuyish bilan kechadi, bilish, o'rganish shavqini va o'z kuchiga bo'lgan ishonchni shakllantiradi.

Uchinchidan, pedagogik jarayon zavqli va qiziqarli bo'lishi kerak. Sanab o'tilgan barcha holatlar gamifikatsiya elementlarini joriy etilgan oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayoni uchun ham dolzarbdir.

A.V. Adolfnig ta'kidlashicha: “bo'lajak o'qituvchi gamifikatsiya asosida kasbiy kompetentligini takomillashtirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- ta'limning ma'lum psixologik-pedagogik konsepsiyalarini hisobga olib, turli fanlarni o'qitish kasbiylarining nazariy asoslarini qayta ko'rib chiqish, bu kasbiy bilimlardagi rasmiyatchilikdan qochish imkonini beradi, ularning asosiy darajasini oshiradi;



- barcha psixologik, pedagogik, fanga oid va kasbiy bilimlarning tizimiyligini ta'minlash;
- talabalarni gamifikatsiya asosida amaliy tayyorlashni qayta ko'rib chiqish – nafaqat amaliyot shakllarini, balki ularning turli turlarini joriy etish shakllarini o'zgartirish;
- psixologik-pedagogik fanlarga gamifikatsiyaga yo'naltirilgan kasbiy tayyorlashni kiritish, bo'lajak o'qituvchini maxsus tayyorlashni kasbiy tayyorlash bilan qo'shilgan maxsus kurslarni o'qish;
- ko'pyondashuvlik tamoyilini joriy qilish – talabalarni turli kasbiy tizimlar bilan, xatto gamifikatsiyaga asoslangan alternativ tizimlar bilan tanishtirish.

U bo'lajak o'qituvchilarga munozara davomida gamifikatsiya elementlari bilan bog'liq metodlarga bo'lgan o'z munosabatini aniqlash, ularni qabul qilish yoki qabul qilmaslik imkonini beradi.

Olingan xulosalardan kelib chiqib, bo'lajak oligofernopedagoglarning kasbiy kompetentligini ta'lim jarayonida takomillashtirish uchun maxsus pedagogik muhit va sharoit, gamifikatsiya elementlarini o'z ichiga olgan holda, hosil qilinishi lozim deb hisoblashimiz mumkin. Talabalarga bunday muhit va sharoitning yaratilishi ularda kasbiy kompetensiyani shakllanish darajasini oshishiga olib keladi. Quyida shunday sharoit va muhit qanday tashkillanishi berilgan. Bunda:

- pedagogika oliygohlarida o'quv jarayonining insonparvarlik tamoyili va gamifikatsiya elementlari asosida tashkil etilishi;
- o'qitishda kasbiy kompetensiyaning komponentlarini rivojlantiruvchi gamifikatsiya vositalarining qo'llanilishi;
- shaffof va ijobiy o'yin asosidagi ta'lim muxiti;
- talabalar va professor-o'qituvchilarning o'zaro gamifikatsiyaga yo'naltirilgan ijodiy aloqasiga zamin yaratuvchi muhitning mavjudligi.

Ushbu pedagogik shart-sharoitlarning mavjudligi talabaning o'z mutaxassisligini ongli ravishda va gamifikatsiya orqali o'zlashtirishiga yordam beradi.

Bo'lajak oligofernopedagogni kasbiy kompetentligi tahlili va o'ziga xosligi, shuningdek, uni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari biz o'rganayotgan jarayonning qator omillariga bog'liqligi haqida xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Omillar bu umumiy ko'rinishdagi bir necha sabablarning yig'indisi hisoblanadi. Omillar, odatda, bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'ladi, bir tizim ichida yashaydi, ular jarayon bilan bevosita bog'liq bo'ladi va gamifikatsiya asosidagi maqsadga qaratilgan harakatlarning ro'yobga chiqishiga yordam beradi.

Oligofernopedagogiya yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligining shakllanishi quyidagi omillarga asoslanadi:

- bo'lajak oligofernopedagoglarning ta'lim jarayonida kasbiy ishga motivatsion tayyorligi va gamifikatsiyaga tayyorligi;
- o'quv mashg'ulotlarida bo'lajak oligofernopedagoglarning tomonidan ijodiy va o'yin asosidagi faollikning namoyon bo'lishi;
- bo'lajak oligofernopedagoglarning insonparvar va gamifikatsiyaga yo'naltirilgan yo'nalganligi;
- bo'lajak oligofernopedagoglarning kasbiy faoliyatning subyekti sifatida gamifikatsiyaga asoslangan ishtirok etish imkoniyati.

Zamonaviy ta'limni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida insonning yashirin qobiliyatlarini aniqlash va ta'lim jarayonida uni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda, ayniqsa, o'qituvchining insonparvarlik va o'yin asosidagi gamifikatsiya fazilatlarini katta ahamiyat kasb etadi, chunki bunday o'qituvchi o'quvchiga nafaqat bilim beradi, balki uni shaxs sifatida shakllanishiga va gamifikatsiya orqali rivojlanishiga ham zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati



1. Muzaffarova F., Nasriddinova D. O'qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 3-sinf darsligi. T.: Niso poligraf servis, 2018.
2. Nurkeldiyeva D.A. Pedagogik – psixologik diagnostika (rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik-psixologik diagnostikasi). Darslik. T.: Vneshinvestrom, 2019. 21-b.
3. Rasulova M., Hikmatova Sh. O'qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 5-sinf darsligi. T.: Cho'lpon, 2020.
4. Xo'jayeva M. O'qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 4-sinf darsligi. T.: Cho'lpon, 2018.
5. Ulenkova U.V., Lebedeva O.V. L.S.Vygotskiy i prakticheskaya psixologicheskaya slujba obrazovaniya segodnya. Nijn. Novgorod, 2001. -196 s.
6. Ushinskiy K.D. Rodnoe slovo. Detyam 5-8 let dlya samostoyatel'nogo chteniya. – M.: Belyy gorod, 2010. – 124 s.

